

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

Axmadova Gulnoza Ubaydullo qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy Universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti  
Fransuz filologiyasi kafedrasi 4-kurs talabasi.  
E-mail: [gulnoza100401@gmail.com](mailto:gulnoza100401@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lism jarayoning zamonaviy ta'lism texnologiyalari bilan birgalikda amaliy jihatdan qo'llanilishining ahamiyati, yurtimizning ta'lism sohasiga kirib kelayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, erishilayotgan yutuqlar va ularning natijalari haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion yondashuv, interfaol, kommunikativ," pinbord", klaster, kompetensiya

**Аннотация:** В данной статье говорится о важности практического использования образовательного процесса вместе с современными образовательными технологиями, современными информационными технологиями, входящими в сферу образования нашей страны, достижениями и их результатами.

**Ключевые слова:** инновационный подход, интерактивный, коммуникативный, «пинборд», кластер, компетентность

**Annotation:** This article talks about the importance of the practical use of the educational process together with modern educational technologies, modern information technologies entering the education sector of our country, achievements and their results.

**Keywords:** innovative approach, interactive, communicative, "pinboard", cluster, competence

### Kirish

Bugungi kunda yurtimizda yoshlар orasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tibor yuksak darajaga ko'tarilgan. Xalqimizda "Til bilgan el biladi", deb bejiz aytilmagan. Xozirgi globallashuv davr jarayoni ham insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilishi bilan birga, bir nechta xorijiy tillarda muloqot qila olishi ham maqsadga muvofikdir.

Barchamizga ma'lumki, 2021-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda Davlatimiz rahbari "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt(soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lism muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim", degan ta'kidlari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Prezidentimizning ushbu qarorlari yuzasidan "Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion yondashuv: milliy va xorijiy tajriba uyg'unligi", "Pedagogik mahoratni oshirish yo'llari va vositalari", "Skillsup.uz platformasi yordami O.Genri va A.Qahhor hikoyalarini chog'ishtirib o'rganishni rivojlantirish", "Tarjima beshinchi til ko'nikmasi sifatida", "Ta'linda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash tamoyillari", "Qo'shiqlar orqali ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari (onlayn vositalar)", "Xotira strategiyalari yordamida o'quvchilarining o'tkazuvchan ko'nikmalarini yaxshilash" kabi mavzulardagi konferensiyalar har yili Oliy ta'lim muassasalarida talabalar va proffessor o'qituvchilar hamkorligida tashkil etilmoqda.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'larning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qaror qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishiда yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalardan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.

Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspekt (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullaridan biridir. Bu jarayonda, jumladan: kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi videoroliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniyadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;

CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarining chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet

orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy - kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashtirish orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi.

Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasini yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

Yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o'qitishning maqsadini o'quvchilarga bilim berish va ma'lum, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchayirish ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi.

### Tajriba tizimi va uslublar

Ma'lumki ta'lim jarayoni murakkab hisoblanadi. Xorijiy til darslarida yangi o'quv materialini prezентatsiya uning turli mashqlar orqali mashq qilinishi va turli nutqiy vaziyatlarga mos qo'llash orqali tegishli nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Talabalarning darsdag'i faolligini oshirishda qator interfaol usullardan foydalanish mumkin. Interfaol metod iborasi ingliz tilidagi "interactive" so'zidan olingan bo'lib u talabalarda ichki faollikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning turli qator turlari bo'lib hozirda keng qo'llanilayotgan "aqliy hujum", ishbilarmonlik o'yinlari "pinbord", "klaster", "sinkveyn", "kyubik texnologiyasi" rolli o'yinlar kabi interfaol metodlarlarning ayrim ko'rinishlari ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan. Interfaol o'qitishda guruh-guruh bo'lib o'qitish, 3-3 kishidan iborat kichik guruhlар tuzish, samarali hisoblanadi. Yuqoridaqilarni umumlashtirib "innovatsion texnologiya" deb atash mumkin.

Hozirgi kunda interfaol metodning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba sinovdan o'tib yaxshi natija bergan. Ta'lif texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: Darsni o'qitish jarayonida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirshda erkin muloqotga kirishishni rivojlantirish; Ta'lif jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta'lif vositalaridan foydalanish. Innovatsion texnologiyalarning xorijiy til kompetensiyalarni o'qitishdagi ahamiyati katta. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsni sifatli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiya ta'lif samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi ta'lif jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatga yangilik, o'gartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lif jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi.

### Kulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ayni paytda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish darsni har tomonlama sifatli va qiziqarli o'tish imkonini beradi va innovatsion texnologiyaga qiziqish kundan kunga ortib bordi. Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil fikrashga tahlil, xulosa qilishga o'rgatadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Hinkel E. Culture in Second Language Teaching and Learning. Oxford, 1999.
2. Robatjazi, M. A. (2008). Language education: Intercultural communicative competence and curriculum. *Glossa*, 3(2), 245-265
3. Nietro S. Language, Culture and Teaching. N. J., 2002.
4. Gazieva, S.T. (2021). Reading is the receptive side of writing. Academic research in educational sciences. *Ares*, 2 (5), 1564-1570.
5. Toliboboeva, S. J. (2020). Features of the translation of emotionally colored vocabulary, Academic research in educational sciences.
6. Jumanova, K. G.K., Yusupova, M. A. (2021). A vital impact of syllabus in teaching process. *Science and Education*, 2 (5), 518-520.
7. Bagapova, G., Kobilova, N. (2019). Nofilologik oliy o'quv yurtlarida xorijiy ta'limi takomillashtirishda didaktik materiallardan foydalanish masalalari. *Fan va jamiyat*, 4, 185-189.
8. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
9. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's "noise" and "pakana's love"." Конференции. 2021.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and

Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.

12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxhiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/"Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
14. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятларо мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
15. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
16. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
17. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).
18. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
19. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
20. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
21. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
22. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
23. Nilufar s., Elvira a. Gender specificity of pedagogical discourse //international scientific conferences with higher educational institutions. – 2023. – т. 3. – №. 08.05. – с. 187-190.
24. Gulnoza k., sadullaeva n. Linguistic features of gluttonic discourse.